

Gentiana olivieri Griseb.



O'simlik tavsifi.

Gentiana Olivieri Griseb - ko'p yillik o'simlik. Poyalari balandligi 30 sm gacha, tik turuvchi yoki ko'tarilgan, silliq, och yashil rang. Ildizpoyasi ingichka, simsimon ildizlarga ega. Poyalari asosida 5 sm gacha o'tgan yilgi barglarning tolasimon qinlarini qoldig'i bilan zich qoplangan. Ildizbo'g'zi barglari uzunligi 2-10 sm, kengligi 4-8 (10) mm, cho'zinchoq-lansetsimon yoki cho'zinchoq, to'mtoq, asosida toraygan, cheti tekis, poya barglarini soni 2(3) juft, tor lansetsimon, uzunligi 1-2 sm. Gullar (1) 3-6, ko'k yoki ko'k-binafsha rangli, bog'lam bo'lib joylashgan, poyaning yuqori qismida vorokasimon og'iz ostida eni 9-13 mm, egilgan bo'lakning uzunligi 5-6 mm, naychada 5 barobar qisqa, cho'zinchoq-chiziqli yoki ellipssimon, to'mtoqlashgan yoki o'tkir; burmalari bo'laklardan 2 barobar qisqa, ikki bo'lakli. Urug'chi bandda joylashgan. Ko'sak uzunligi taxminan 2 sm, cho'zinchoq. Urug'larning uzunligi taxminan 2 mm, ellipssimon, och qo'ng'irrang, qanotsiz, ingichka to'rsimon. U aprel-iyulda gullaydi va meva beradi.

O'sish joyi. Tarqalishi.

Gentiana Olivieri Griseb. (Gentianaceae L.) quruq tog' yon bag'irlarida o'sadi. Tog' etaklaridan baland tog'larga qadar keng tarqalgan, ochiq joylarda, o'tli va daraxt-butali o'simliklar qoplamida, 300-3700 m balandlikda o'sadi. O'rta Osiyoda, Kavkazning janubida tarqalgan. O'rta Sharqdan (Turkiya, Eron, Iroq, Afg'oniston) Sharqiy Osiyoga (Tyan-Shangacha) qadar tarqalgan. O'zbekiston Respublikasining Toshkent, Samarkand, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo, viloyatlarida tarqalgan.

Kimyoviy tarkibi.

Gentiana olivieri Griseb. yer usti qismlarida flavanoidlar, oshlovchi moddalar, efir moylari, polisaxaridlar, achchiq glikozidlar, taninlar va smolalar mavjud.

Tibbiyotda qo'llanilishi.

Ilmiy tibbiyot amaliyotida *Gentiana olivieri* Griseb. damlamasi ishtaha ochuvchi sanaladi va ovqat hazm qilishida yordam berganligi tufayli o't haydovchi vosita sifatida tavsiya etiladi. O'rta Osiyo xalq tabobatida ildizlarning qaynatmasi yo'tal, radikulit, ishtaha yo'qligida, va ichak bo'shashganligida qo'llaniladi. Bolalarning teri kasalliklarida o'tining qaynatmasida cho'miltiriladi. Yer usti qismi choy shaklida terlatuvchi, o't haydovchi va ovqat hazm qilishini stimullovchi vosita sifatida ishlatiladi.